



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шоқир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхураевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Diloram Babajanova O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASHGA DOIR DAVLAT SIYOSATI.....	5
2. Ойбек Абдимўминов БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	11
3. Sarvar Axmedov XX ASRNING 60-80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING ILM-FAN SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI.....	18
4. Nafosat Botirova ANTIK DAVR O‘RTA OSIYO XALQLARI JANG OLIB BORISH USLUBLARI.....	23
5. Дмитрий Епифанов АНАЛИЗ ДЕНЕЖНОЙ И НАЛОГОВОЙ РЕФОРМ БУХАРСКОГО ПРАВИТЕЛЯ АБДУЛЛА-ХАНА II ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ХАНСТВА.....	28
6. Istora Jo‘rayeva O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK QIYOFASI.....	31
7. Xamdani Matyakubov TOSH DAVRIDA XO‘JALIK SOHASI, MADANIYAT VA IJTIMOIIY ALOQALAR (XORAZM VOHASI MISOLIDA).....	35
8. Sahodat Murtazova, Otabek Ziyodov O‘ZBEK ESTRADA SAN‘ATINING SHAKLLANISHI VA UNING ATOQLI VAKILLARI FAOLIYATI TARIXIDAN.....	43
9. Sevara Pulatova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA RASSOMLAR FAOLIYATINI SAFARBAR ETISH JARAYONLARI.....	48
10. Yoqubjon Tayronov TURKISTONDA MAHALLIIY BOYLARNING METSENATLIK FAOLIYATLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (Milliy matbuot materiallari asosida).....	53
11. Dildora Tursunova HUNARMANDCHILIK ASOSIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASH.....	59
12. Солижон Қудратов СИРДАРЁ ҲАВЗАЛАРИДА ДАВЛАТЧИЛИК ТИЗИМИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ.....	63



Diloram Babajanovna Babajanova,
professor, tarix fanlari doktori
Alfraganus universiteti Xalqaro
munosabatlar va tarix kafedrası
dilorambabajanova52@gmail.com

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASHGA DOIR DAVLAT SIYOSATI

For citation: Diloram B. Babajanova. STATE POLICY ON ENSURING INTERETHNIC HARMONY AND TOLERANCE IN UZBEKISTAN. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 2, pp.5-10

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14978631>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida tarixiy va qonuniy asoslarga ega bo‘lib, dunyoviy davlat va din orasidagi munosabatlarning mustahkam huquqiy asoslari yaratilganligi, ushbu zaminda yagona oila farzandlaridek ahillikda istiqomat qilayotgan millat va elat vakillarining kelajagi va barqaror rivojlanishi uchun diniy bag‘rikenglik va millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish muhim omil ekanligi xususida fikr yuritiladi.

O‘zbekiston asrlar osha o‘zining insonparvar va xalqparvar siyosati bilan doimiy tinchlik va hamjihatlikda hayot kechirishi bilan boshqa o‘lkalardan ajralib turadi. Yangi O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik g‘oyalarini jamiyatda yanada rivojlantirish, turli din va e‘tiqod vakillari uchun teng hamda o‘zaro bag‘rikenglik asosidagi davlat siyosati natijasida amalga oshirilayotgan ishlarni ilmiy nuqtai nazardan tahlil etish tadqiqotchilar uchun g‘oyat dolzarb mavzulardan biriga aylanganligi bois, mazkur mavzuning o‘ziga xos jihatlarni ochib berish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Kalit so‘zlar: diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, globallashuv jarayoni, yagona oila, barqaror rivojlanish, tinchlik va hamjihatlik, milliy qadriyatlar, umuminsoniy manfaatlar.

Дилорам Бабаджановна Бабаджанова,
профессор, доктор исторических наук
университет Альфраганус
кафедра международных отношений и истории
dilorambabajanova52@gmail.com

**ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ
МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ И ТОЛЕРАНТНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается, что обеспечение религиозной терпимости и межэтнического согласия в новом Узбекистане имеет исторические и правовые основания как неотъемлемая часть государственной политики, создана прочная правовая основа отношений между светским государством и религией, религиозная терпимость и гармонизация межэтнических отношений являются важным фактором для развития страны. будущее и устойчивое развитие представителей нации и

Узбекистан отличается от других стран тем, что на протяжении веков живет в постоянном мире и согласии со своей гуманной и народной политикой. С момента дальнейшего развития в обществе нового Узбекистана идея религиозной терпимости и межэтнического согласия анализ работы, проводимой в результате государственной политики, основанной на равной и взаимной терпимости к представителям разных религий и вероисповеданий, с научной точки зрения стал одной из наиболее актуальных тем для исследователей это важно

Ключевые слова: религиозная толерантность, межэтническое согласие, процесс глобализации, единая семья, устойчивое развитие, мир и согласие, национальные ценности, общечеловеческие интересы.

Diloram B. Babajanova,
professor, Doctor of historical sciences
Alfraganus University
Department of relations and history
dilorambabajanova52@gmail.com

**STATE POLICY ON ENSURING INTERETHNIC HARMONY AND TOLERANCE
IN UZBEKISTAN****ABSTRACT**

In this article, it is thought that ensuring religious tolerance and interethnic harmony in the new Uzbekistan has historical and legal grounds as an integral part of state policy, a solid legal basis for relations between the secular state and religion has been created, religious tolerance and harmonization of interethnic relations is an important factor for the future and sustainable development of representatives of the nation and

Uzbekistan is distinguished from other countries by the fact that over the centuries it lives in constant peace and harmony with its humane and folk policy. Since the further development of the ideas of religious tolerance and interethnic harmony in the new Uzbekistan in society, the analysis of the work carried out as a result of state policies based on equal and mutual tolerance for people of different religions and faiths from a scientific point of view has become one of the most relevant topics for researchers, it is

Index Terms: religious tolerance, interethnic harmony, globalization process, single family, sustainable development, peace and harmony, national values, universal interests.

1. Dolzarbligi:

Yangi O'zbekistonda etnik o'ziga xoslik, tili, urf-odat va an'alarini har tomonlama rivojlantirish va o'zaro boyitish bo'yicha teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lgan turli millat va elat vakillari yagona oila bo'lib, do'stlik va inoqlikda hayot kechirish barobarida, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, mamlakatni yanada ravnaq toptirish, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada oshirish maqsadida barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish yo'lida ular o'zlarining fidokorona mehnati bilan munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Yangi O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik – davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida tarixiy ildiz va mustahkam qonuniy asoslarga ega. Jamiyatdagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat va bag'rikenglik kabi oliyjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg'un yashash tamoyili tobora mustahkamlanib borayotgani O'zbekistonda istiqomat

qilayotgan barcha millat va elat vakillarining hayot tarzi jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilmoqda. Shuning uchun ham, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik milliy mafkuraning asosiy g'oyalardan biri hisoblanar ekan, O'zbekistoye Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda millatlar va konfessiyalararo hamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda"[1.307]. Bu o'lkada 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona oila farzandlaridek ahil yashayotganligi, ana shunday ko'p sonli millat va elat vakillarining birgalikda, hamnafas va hamjihat bo'lib umr kechirishi natijasida ular bir-birlarini ma'naviy va madaniy jihatdan boyitib bormoqda.

O'zaro munosabatlar ta'sirida ko'p millatli xalqimizning turmush tarzi yanada yuksalib borayotgani sabab, Yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi imidji kun sayin ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Shuningdek, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, o'z qiziqishi va layoqati bo'yicha kasb-hunar egallashi, mehnat qilishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayni paytda turli millat va elatlarning milliy an'ana va qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni yanada rivojlantirish, boyitish masalasi davlat siyosatining doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. O'zbekistonning mustaqillik kunigacha 211 ta diniy tashkilot ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, 2022 yilga kelib adliya boshqarmalaridan 16 ta konfessiyaga aloqador 2328 ta diniy tashkilot ro'yxatdan o'tgan. Bularning aksariyatini islomiy tashkilotlar tashkil etadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan masjidlar soni 2101 tani tashkil etadi, shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari, Hadis ilmi maktabi, Mir Arab oliy madrasasi, Toshkent islom instituti, 10 ta madrasa va Xalqaro islom akademiyasi shular jumlasidandir[2]. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yetti tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, qirg'iz, turkman, qozoq va tojik tillarida bilim berilayotgani, shuningdek, ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millatlarning 10 ta tilida faoliyat olib borayotgani buning yorqin ifodasidir. Respublikadagi pravoslav e'tiqodiga amal qiluvchilar uchun "Slovo jizni" gazetasi, "Vostok svyshe" jurnali, shuningdek, ibodat ma'ruzalari va boshqa ma'rifiy nashrlar chop etilyapti[3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" nomli V bandida "Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash" masalasi 74-maqсадda keltirilgan bo'lib, unda "millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta'minlash" zarurligi ta'kidlangan[4]. Mamlakatda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston atalmish jannatmakon yurtning, Yangi Konstitutsiyasining 19-moddasida ta'kidlanganidek, "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" [5.13.], – deb belgilab qo'yilganligi, ko'pmillatli xalqimiz o'rtasidagi totuvlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash uchun yaratilgan zamindir. Zero, Prezident Sh.Mirziyoyevning "Jamiyatimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarimiz sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda" [6.38.], deb ta'kidlangani ham bejiz emas. Zero, diniy bag'rikenglikni, millatlararo totuvlik, hamjihatlik va ayniqsa, o'zaro munosabatlarni ta'minlash borasida amalga oshirilgan tadbirlar va ularning natijalarini tahlil etish hozirgi kunning dolzarb ilmiy masalalaridan biridir.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Ushbu maqola umume'tirof etilgan metodlar, jumladan tarixiylik, ilmiylik, va hududiy yondoshuvlar kabi tarixiy metodlar asosida o'rganilgan bo'lib, unda respublikada diniy bag'rikenglikni ta'minlash va istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining o'zaro munosabatlarini yanada takomillashtirish maqsadida turli jabhalarda olib borilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan, mazkur yo'nalishda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati ham ochib berilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Yangi O'zbekistonda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash uchun barcha huquqiy asoslar hamda zarur shart-sharoitlar yaratib berilgan, amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar ham, olib borilayotgan keng ko'lamdagi ishlar ham jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga qaratilgan. Bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish va yanada mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995 yil 16 noyabrdagi 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risida"gi Deklaratsiya qabul qilindi. Shu kundan e'tiboran 16 noyabr sanasi Xalqaro bag'rikenglik kuni sifatida butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham keng nishonlab kelinadi. Bag'rikenglikdan asosiy ko'zlangan maqsad insoniyatni tinchlik va osoyishtalikni saqlashga undashdir. Mazkur deklaratsiyada ta'kidlanganidek: "Bag'rikenglik bo'lmasa tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi" [7.92.]. Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi nafaqat dindorlarning, balki, butun jamiyat a'zolarining ezgulik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi.

Ko'p millatli mamlakatning muvaffaqiyatli rivojlanishi ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy-siyosiy asoslar hamda axloqiy mezonlar bilan bir qatorda ko'p jihatdan mamlakatdagi turli millatlar va diniy konfessiyalar o'rtasida totuvlik hamda mustahkam tinchlikka bog'liq. Etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 2017 yil 19 maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Ushbu qo'mitaning asosiy vazifalari sifatida jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do'stlik va ko'pmillatli yagona oila tuyg'usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, do'stona xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik hamjamiyatlari, shu jumladan chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan do'stlikni mustahkamlash borasidagi ishlarni samarali muvofiqlashtirish kabi jihatlar ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Mazkur qo'mita o'z faoliyati doirasida jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosatini izchil hamda samarali amalga oshirib, 150 ta milliy-madaniy markaz bilan hamkorlik qilmoqda[8.174.]. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyevning "...mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko'z qorachig'idek saqlash hamda mustahkamlashni o'zining ustuvor vazifam, deb hisoblayman" [9.8-9.], deb ta'kidlagani ham ayni muddao edi.

Yangi O'zbekiston tarixidagi eng muhim voqealardan biri—2017 yil 19 sentyabrda Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident Sh.Mirziyoyev ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi sifatida 2018 yili BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi yalpi sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiya qabul qilinganligi[10] bo'lib, uning asosiy maqsadi —dunyoda bag'rikenglik va o'zaro hurmatni o'rnatish, diniy erkinlikni ta'minlash, dindorlar huquqlarini himoya qilish va ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat edi.

O'z navbatida, YUNESKO tashkiloti ham dunyoda tinchlik, dinlar va konfessiyalararo muloqot o'rnatish, millat va elatlar hamkorligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib keladi. Ayni paytgacha bag'rikenglikka oid 70 dan ziyod xalqaro hujjat qabul qilingan. Masalan, 1995 yil 16 noyabr kuni Parijda YUNESKO Bosh Assambleyasi 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risida"gi Deklaratsiya qabul qilingan bo'lsa, shu kundan e'tiboran 16 noyabr sanasi "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham keng nishonlab kelinadi. Bundan ko'zlangan maqsad insoniyatni tinchlik va osoyishtalikni saqlashga undashdir. Mazkur deklaratsiyada: "Bag'rikenglik bo'lmasa tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi", deya ta'kidlangan [11.92.]. Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi nafaqat dindorlarning, balki, butun jamiyat a'zolarining ezgulik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutadi.

Azaldan yirik shaharlarda turli diniy idoralar o'z ibodatchilariga emin-erkin xizmat ko'rsatib kelgani, tarixning og'ir sinovlarida ham diniy asosda mojarolarning chiqmaganligi o'zbek xalqining dinlararo bag'rikenglik borasida ulkan tajribaga ega ekanligidan dalolat beradi. Shu bois, O'zbekistonda tom ma'noda diniy bag'rikenglikning yuksak an'analariga amal qilinayotgani jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugungi osuda hayotimizning qadriga yetish, jamiyatimizda hukm surayotgan turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar o'rtasidagi bag'rikenglikni, fuqarolar orasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash barchamizning asosiy burchimizdir" [12.311.], deb ta'kidlagani ham bejiz emas.

Prezidentning 2017 yildagi PP-3080-son qarori bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekiston Islom madaniyati markazi tashkil qilingan edi. Keyinroq, shu yilning o'zida davlat rahbari uning nomini Islom sivilizatsiyasi markaziga o'zgartirishni taklif etgandi. Prezident qaroriga asosan, O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi "Uchinchi Renessans—Yangi O'zbekiston" g'oyasini targ'ib qiluvchi, mamlakatning yangi yuksalish davridagi yutuqlarni ilmiy asosda o'rganuvchi va keng jamoatchilikka yetkazuvchi markazga aylantirilishi nazarda tutilgan [13].

2024 yil O'zbekiston tarixida muhim voqealar va yutuqlar bilan yodda qolganligini, ortda qolgan yil O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi uchun ham samarali yil bo'lganligini ta'kidlash joiz. O'tgan yilning iyul-avgust oylarida Toshkent va Samarqand shaharlarida "Buyuk ajdodlar merosi – III Renessans asosi" mavzusidagi xalqaro kongress tashkil etildi. Oktyabr oyida esa "Sharq renessanslari fenomeni: saltanatlar, tamaddunlar, shaxslar va kashfiyotlar" mavzusidagi xalqaro madaniy meros haftaligi o'tkazilib, 300 nafardan ortiq olim ishtirok etishi ta'minlandi.

Hozirda qurilishi yakuniga yetayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi fondini boyitish bo'yicha olimlar, muzey va kutubxona vakillari o'rtasida muhokamalar tashkil etildi [14]. Markaz bilan O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Toshkent shahar bo'limi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi, unga ko'ra har ikki muassasa ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishda, shuningdek yoshlarni har tomonlama mukammal insonlar bo'lib yetishishlari, ilmiy-tadqiqotlar olib borishlari va ish bilan ta'minlanishlari yo'nalishlarida hamkorlik qiladilar. Shuningdek, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori o'rinbosari, Shayx Abdulaziz Mansur tomonidan amalga oshirilgan Qur'on sharhlarining qisqacha ruscha tarjimai birinchi marta amalga oshirildi. Ko'p tilli, ko'p millatli va ko'p dinli yurtimizda Qur'onning rus tilidagi tafsirlarining e'lon qilinishi katta ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega[15]. Mazkur tarjima, yurtimizga ilm olish uchun kelayotgan xorijlik talabalar va tadqiqotchilar uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, respublikada diniy tashkilot va muassasalarning barpo etilishi natijasida diniy bag'rikenglik tamoyillarining yaxshi yo'lga qo'yilganligi, milliy an'ana va qadriyatlarni yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ezgu ishlar, ko'rsatilayotgan ulkan e'tibor va g'amxo'rliklar, yaratilayotgan barcha imkoniyat va sharoitlar bugungi hayotimizda aks etmoqda, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish va yanada uyg'unlashtirishda muhim omil bo'lmoqda.

4. Xulosa:

Yangi O'zbekistondagi diniy va millatlararo totuvlikni saqlashga doir yuksak insonparvar siyosat, jamiyatdagi barqarorlik, o'zaro hurmat, hamjihatlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, muruvvat va shafqat, sahovat muhiti dunyoning ko'plab mamlakatlari uchun havas qilishga va namuna bo'lishga arzigulikdir. Millatlararo munosabatlar, totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlashga doir davlat siyosatining olib borilishi natijasida umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odat hamda an'analar uyg'unlikda, bir-biridan quvvat olgan holda tobora mustahkamlanib bormoqda. Zero, respublikada hukm surayotgan millatlararo munosabatlardagi do'stlik va birdamlik muhiti, diniy bag'rikenglikni yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishda muhim omil bo'lmoqda. Respublikada istiqomat qilayotgan millatlar o'rtasida hamjihatlilikni mustahkamlash, millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish, diniy bag'rikenglik va insonparvarlik qadriyatlarini, bu borada amalga oshirilayotgan madaniy-ma'rifiy ishlarni ilmiy asosda yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtiboslar/Cnoski/References:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B.307 (1. Mirziyoyev Sh. New Uzbekistan strategy. – Tashkent: Uzbekistan, 2021. – P.307).
2. Kattayev P. Diniy bag‘rikenglik – o‘zbek xalqining oliy qadriyati// <https://oliymahad.uz> (2. Kattayev P. Religious tolerance – the highest value of the Uzbek people// <https://oliymahad.uz>).
3. Ahmedov H. Yangi O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash – davlat siyosatining ajralmas qismi// [bukhari.uz](https://www.bukhari.uz) <https://www.bukhari.uz>. (Ahmedov H. Ensuring religious tolerance in New Uzbekistan is an integral part of state policy // [bukhari.uz](https://www.bukhari.uz) <https://www.bukhari.uz>.)
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni// <https://lex.uz/docs/5841063> (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 No. UP-60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" // <https://lex.uz/docs/5841063>)
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B.24 (Constitution of the Republic of Uzbekistan – Tashkent: Uzbekistan, 2023. – B.24)
6. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda/Sh.Mirziyoyev. – Toshkent:O‘qituvchi MU MCHJ, 2021.– B.38 (6. Shavkat Mirziyoyev. New Uzbekistan is becoming a country of democratic changes, wide opportunities and practical affairs / Sh.Mirziyoyev. – Tashkent: Teacher MU LLC, 2021.–P.38).
7. Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. YUNESKO xalqaro me‘yoriy hujjatlari. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.92. (Declaration of Principles of Tolerance. UNESCO International Normative Documents. – Tashkent: Justice, 2004. – P.92).
8. Oqil Salimov. Yangi O‘zbekiston davlati. –Toshkent: Ma‘naviyat, 2023.–B.174 (Aqil Salimov. The New State of Uzbekistan. –Tashkent: Spirituality, 2023. – P. 174).
9. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz//O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishgan tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent:O‘zbekiston, 2016. –B.8-9. (Mirziyoyev Sh. Free and prosperous, democratic Uzbekistan's state together, we will build together//Speech at the joint meeting of the chambers of the Oliy Majlis dedicated to the solemn ceremony of the President of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent: Uzbekistan, 2016. –P.8-9.)
10. Usarova F. Millatlararo totuvlik//Xalq so‘zi// <https://xs.uz/uzkr/post/millatlararo-totuvlik...> (Usarova F. Interethnic harmony // Halk so'zi// <https://xs.uz/uzkr/post/millatlararo-totuvlik...>)
11. Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. YUNESKO xalqaro me‘yoriy hujjatlari. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.92. (Declaration of Principles of Tolerance. UNESCO International Normative Documents. – Tashkent: Justice, 2004. – P.92).
12. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B.311. (Mirziyoyev Sh. New Uzbekistan strategy. – Tashkent: Uzbekistan, 2021. – P.311).
13. Islom sivilizatsiyasi markazi transformatsiya qilinadi// [Gazeta.uz](https://www.gazeta.uz) <https://www.gazeta.uz> > uz > centre. (The Center for Islamic Civilization will be transformed // [Gazeta.uz](https://www.gazeta.uz) > uz > Centre.)
14. Samarali “365 kun”—Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatiga nazar// <https://islom.uz>. (Effective "365 days"—a look at the activities of the Center for Islamic Civilization // <https://islom.uz>.)
15. Islom sivilizatsiyasi markazi yangiliklari// [gov.uz](https://dkm.gov.uz) <https://dkm.gov.uz> > uz > islom-civilizatsiyasi-markazi-angiliklari (News of the Center of Islamic Civilization// [gov.uz](https://dkm.gov.uz) <https://dkm.gov.uz> > uz > Islamic-civilizatsiyasi-center-angiliklari)

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000